

TIL O'QITISHDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVNING AHAMIYATI

Xursanova Nigoraxon Muzaffar qizi

ToshDO 'TAUning 3-kurs talabasi

[*nigoraxursanova232@gmail.com*](mailto:nigoraxursanova232@gmail.com)

Annotatsiya: *Mazkur maqolalarda til o'qitish jarayonida kompetensiyaviy yondashuvning o'rni va ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. O'zbekiston ta'lim tizimida bu yondashuvni joriy etish bo'yicha amalga oshirilgan islohotlar, normativ hujjatlar va xalqaro tajriba asosida tahlil qilinadi.*

Abstract: *These articles analyze the role and importance of the competency-based approach in the process of language teaching from a scientific and theoretical perspective. The reforms implemented to introduce this approach in the education system of Uzbekistan are analyzed based on regulatory documents and international experience.*

Kalit so'zlar: *Kompetensiyaviy yondashuv, kompetensiya, kompetentlik, til o'qitish, ta'lim sifati, o'quvchi faolligi, tayanch kompetensiyalar, ta'lim metodikasi.*

Keywords: *Competency-based approach, competence, competence, language teaching, quality of education, student engagement, PISA, TIMSS, core competencies, educational methodology.*

Kirish

O'quvchilarning fanga oid kompetensiyalarini rivojlantirish, ta'lim mazmunini fan yutuqlari orqali uyg'unlashtirish metodikasini takomillashtirish, o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini baholashning xalqaro dasturlari (PISA, TIMSS) hamda o'quvchi kompetensiyalarining shakllanganligini tashxislash bo'yicha ilmiy tadqiqotlar alohida ahamiyat kasb etmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Yoshlarning ta'lim-tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan qator chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan beshta tashabbus umumiy o'rta ta'limning kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta'lim standartlari hamda fan o'quv dasturlari ishlab chiqildi va ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etishning me'yoriy asoslari yaratildi.

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishida umumiy o'rta ta'lim sifatini tubdan oshirish, talab yuqori bo'lgan fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o'rganish vazifalari belgilab berilgan. Bu ta'lim jarayonini zarur axborotlar bilan ta'minlash, ularni o'zlashtirib borishning maqbul yechimlarini topish va joriy qilish imkoniyatlarini kengaytiradi.

O'quvchilarda shakllantiriladigan kompetensiyalar uch darajaga ajratiladi: tayanch kompetensiyalar;

umumiy kompetensiyalar;

xususiy kompetensiyalar.

O'quvchilarning umumiy va har tomonlama rivojlanishi uchun asos bo'ladigan kompetensiya tayanch kompetensiya, faqatgina o'quv fani orqali shakllantiriladigan kompetensiya xususiy kompetensiya hisoblanadi.

Kommunikativ, axborot bilan ishlay olish, shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish, ijtimoiy faol fuqarolik, umummadaniy, matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyalarini shakllantirish kabi tayanch kompetensiyalar umumiy o'rta ta'lim maktablarining vazifasi sifatida yuklatilgan.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida - uzluksiz ta'lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash, o'qitish metodikasini takomillashtirish, asosiy fanlarni chuqur o'rganishga

e'tiborni qaratish, davlat ta'lim standartlarida ko'zda tutilgan kompetensiyalarga asoslangan pedagogik faoliyatni baholash mezonlarini ishlab chiqish kabi vazifalar belgilangan.

Har bir mamalakatning kuch-qudrati uning intellektual salohiyati orqali belgilanadi. Yevropa tajribasiga tayangan holda O'zbekiston ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvning joriy etilishi, shakllantiriladigan ta'lim kompetensiyalarini tanlash va ularni ta'lim tizimiga singdirish orqali respublikamizda ta'lim tizimi samaradorligini oshirish mumkin.

Komponentlik bilim darajasi sifatida "u yoki bu ob'yektning mohiyatan realligini tafakkur qila olish" masalasining nazariy jihatlarini o'zlashtirishga qaratilgan faoliyat tushuniladi.

Natijalar va muhokama

Immanuil Kantning fikricha ona tili mashg'ulotlari uchun juda muhim bir jihatni nazardan qochirmaslik ya'ni "O'quvchilarga fikrlarni emas fikrlashi o'rgatishimiz zarur". Kompetensiyaviy yondashuv ta'limdagi eng samarali yondashuv bo'lib, u o'qituvchilardan zukkolik, tadbirkorlikni va mahoratni talab etadi.

A.V.Xutorskiyning ishlarida kompetensiya va kompetentlik ta'riflari, xususan «...ma'lum bir sohada faoliyat ko'rsatishga imkon beradigan zaruriy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan shaxs –kompetentli shaxs», degan fikri mos tushadi.

V.V.Serikovning ishlarida kompetentlikni «o'qimishli, bilimli, ko'nikmali bo'lish usuli shaxsiy o'zligini namoyon qilishga imkon beradigan tushunchalar jamlanmasidir» deb izohlaydi.

Ta'limda kompetentlik bilan yondashuv o'quvchilarni turli ko'nikmalarni egallash, kelajakda ijtimoiy, kasbiy va shaxsiy hayotlarida samarali harakat qilishga yo'naltiradi. Kompetensiyaning bilimdan farqi vazifani amaliy bajarmasdan turib, uni aniqlab ham, baholab ham bo'lmasligida.

7-sinf ona tili darsligida berilgan "Elekromobillar" mavzusi misolida

qaraydigan bo'lsak, bu mavzu o'quvchilarda kamxarj, ekologik bezarar avtomobillar haqida tasavvur hosil qilish va nutqida unga oid til birliklarini faollashtirish; avtomobil rusumlarini ifodalovchi nomlar, ularning talaffuzi va imlosi, qisqartma so'zlarni hosil qilish; belgili va belgisiz qo'llanadigan kelishik shakllari, kelishik shaklidagi

so'zlarga to'g'ri so'roq berish kabi lingvistik bilim berish; infografika asosida keltirilgan ma'lumotlarni og'zaki ifodalash ko'nikmasini shakllantirishga xizmat qiladi. So'ng matn yuzasidan testlar berilgan, bu testdan o'quvchilarning ma'lumotlarni saralashni o'rgatish maqsad qilingan. Uyga vazifa sifatida berilgan topshiriq o'quvchilarning yozma matn yaratish ko'nikmasini shakllantirish bilan birgalikda mashinaga, tadbirkorlikka qiziqadigan bolaning qobiliyatlarini yuzaga chiqarishga qaratilgan. O'quvchilar yo'riqnoma bilan tanishib, berilgan sarlavha ostida matn yozib kelishlari lozim.

Xulosa

Kompetensiyaviy yondashuv bugungi kunda ta'lim sifatini oshirishda asosiy omillardan biri sifatida qaralmoqda. Til o'qitishda bu yondashuvni qo'llash orqali o'quvchilarning nafaqat grammatik bilimlari, balki kommunikativ, ijodiy va mantiqiy tafakkur ko'nikmalari ham rivojlanadi. Mazkur maqolalarda ta'kidlanganidek, o'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch, umumiy va xususiy kompetensiyalar ularning ijtimoiy va kasbiy hayotga moslashuvchanligini oshirishga xizmat qiladi. O'zbekistonda bu yo'nalishda amalga oshirilayotgan islohotlar, ta'lim standartlarining yangilanishi va xalqaro baholash tizimlarida ishtirok etish esa kompetensiyaviy yondashuvning ahamiyatini yanada kuchaytirmoqda. Bu yondashuv orqali o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga asoslangan, samarali va natijador ta'lim muhitini shakllantirish mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1.Barakaevich, K. S. (2020). Improvement of Vocational Training of Pupils in Secondary Schools. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24

2.Qoraev, S. (2016). Specific features of interdisciplinary coherence and interoperability. "Education, Science and Innovation," 2 (2), 45-50.

3.Қораев, С. (2016). Фанлараро узвийлик ва узаро алоқани таъминлашнинг ўзига хос хусусиятлари. "Таълим, фан ва инновация", 2(2), 45- 50

4.<https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/tilshunoslik/ona-tili-ta-limida-zamonaviy-yondashuvlar>

5.<https://cyberleninka.ru/article/n/kompetensiyaviy-yondashuvga-asoslangan-ta-limning-asosiy-jihatlar/viewer>

6.<https://lex.uz/docs/-5358408>